



## MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY VA TA‘LIM TILI

**MUALLIF: O.H.HUKUMOV,**

STARS INTERNATIONAL UNIVERSITETI 1-kurs talabasi  
hukumovogabek3@gmail.com

**ILMIY RAHBAR: M.N.RAHIMJANOV,**

STARS INTERNATIONAL UNIVERSITETI dotsenti, PhD  
masrur79@mail.ru;

<https://doi.org/10.47689/STARS.university-pp201-204>

**Аннотация:** *Jadidlarning ta‘limning ona tilida bo‘lishi (hech bo‘lmasa boshlanishi) to‘g‘risidagi fikrlari yakdilona bo‘lsa-da, ona tilining, millat tilining qandayligi masalasida ular dunyoqarashida katta tafovutlar bo‘lgan. O‘z davrida jadidlar ta‘lim ona tilida bo‘lishini talab etgan bo‘lsalar-da, ta‘lim tizimidan fors va arab tillarini chetlashtirish taklifini kun tartibiga qo‘ymadilar.*

**Таянч иборалар:** *ijtimoiy-siyosiy, hurfikrlilik, ziyoli, milliy, mafkura, jamiyat taraqqiyoti, salbiy hamda ijobiy taraflar, madaniy, davr matbuoti, nazariy, fikr-mulohazalar, Turkiston, ziyolilar.*

O‘z davrida jadidlar ta‘lim ona tilida bo‘lishini talab etgan bo‘lsalar-da, ta‘lim tizimidan fors va arab tillarini chetlashtirish taklifini kun tartibiga qo‘ymadilar. Mahmudxo‘ja Behbudiy esa “Ikki emas, to‘rt til lozim” (1913) degan maqolasida: “Biz turkistoniylarg‘a turkiy, forsiy, arabiy va rusiy bilmog‘ lozumdur”<sup>1</sup>, - deb yozgan va bu tillardan har birining ta‘lim tizimida tutgan o‘rnini alohida ochib bergan. Jadidlarning ibtidoiy maktab tili bolalarning ona tiliga asoslanishi kerakligi haqidagi mush-tarak fikri Saidrasul Aziziyning “Ustozi avval” (1900), Munavvar qori Abdurashidxonovning “Adibi avval” (1907), Behbudiyning “Kitobi muntaxabi jo‘g‘rofiyai umumiy” (1906), “Kitob ul-atfol” (1908), Hamzaning “Yengil adabiyot” (1911), “O‘qish kitobi” (1911), “Qiroat kitobi” (1912), Abdulla Avloniyning “Birinchi muallim” (1912), “Ikkinchi muallim” (1912), “Turkiy guliston yoxud axloq” (1913), “Maktab gulistoni” (1917), Elbekning “O‘zbekcha o‘qish” (1922) kabi kitob (darslik)larida o‘z aksini topdi.

Jadidlarning ta‘limning ona tilida bo‘lishi (hech bo‘lmasa boshlanishi) to‘g‘risidagi fikrlari yakdilona bo‘lsa-da, ona tilining, millat tilining qandayligi masalasida ular dunyoqarashida katta tafovutlar bo‘lgan. Bu o‘ta dolzarb ilmiy va ma‘rifiy hamda madaniy masala qisman M.Qurbonova<sup>2</sup>, Y.Saidov<sup>3</sup>, T.Tog‘ayev<sup>4</sup>, Sh.Bobomurodova<sup>5</sup> ishlarida ko‘rilgan. 1913-1917 yillarda ko‘pgina jurnal va gazetalarda, chunonchi, “Sa-

<sup>1</sup> Behbudiy M. Tanlangan asarlar (Nashrga tayyorlovchi V.Qosimov). T.: Ma‘navshgg, 1997. B.6E.

<sup>2</sup> Qurbonova M Abdurauf Fitrat va o‘zbek tilshunosligi (metodik qo‘llanma). T.: Universitet, 1997. B 48; Qurbonova M. Fitrat - tilshunos. T.: Universitet, 1996. B.32; Qurbonova M. Fchtratning tilshunoslik merosi. Fil. fan. nom.diss. avtoref. T.: 1993. B.29.

<sup>3</sup> Saidov Yo. Fitrat badiiy asarlari leksikasi. Fil fanlari nom. diss. avtoref. T.: TAI, 2001. B 28.

<sup>4</sup> Tog‘ayev T. Ashurali Zoxiriy va uning tilshunoslik merosi. Fil. fanlari nomzodi diss. avtoref. T.: TAI, 2005. B.28.

<sup>5</sup> Bobomurodova Sh. O‘zbek tilshunosligi rivojida Elbekning roli. Filol. fanlari nom. diss. avtoref. T.: 2001.-B.32.

doyi Turkiston” gazetasi, “Oyina” jurnalida “Til masalasi” bo‘limi (rubrikasi) mavjud bo‘lib, bu bo‘limda til, atamashunoslik, imlo muammolariga doir maqolalar joylashtirilgan. Jadidlarning tilga bag‘ishlangan maqolalari ko‘p. M.Behbudiyning “Ikki emas, to‘rt til lozim” (1913), “Til masalasi” (1915), “Sart so‘zi majquldir”, “Sart so‘zi ma‘lum bo‘lmadi” (1916) Fitratning “Tilimiz” (1919) kabi maqolalari shular jumlasidandir. Bu maqolalarda, asosan, o‘zbek (turkiy) tilining asossiz xo‘rlanganligi, toptalganligidan chekilgan afsus va nadomatlar ko‘proq ifodalanganligini kuzatamiz. Bu borada M. Behbudiyning “Til masalasi” maqolasi boshqalaridan ancha farqlidir. Ikki qismdan iborat bu maqolaning “Oyina” jurnali (1915 yil 11-son)da bosilgan birinchi qismida turkiy tillarning sheva va lahjalari, Turkistonda turkiy va forsiy - ikki tillilik masalasi yoritilgan. Maqolaning “Oyina” jurnalining 12-sonida bosilgan ikkinchi qismida esa Turkiston uchun umumiy milliy-adabiy til masalasi, jumladan, ta‘lim tili masalasi kun tartibiga qo‘yiladi.

M.Behbudiy 1910-1915 yillarda jadid matbuoti sahifalarida hukmron bo‘lgan “Tilimizdan forsiy va arabiy qavayluk” shiorini “Ko‘p yengil, ammo ijrosi mumkin emas orzulardandur”, deb baholaydi va “butun Turkiston mintaqasi uchun yagona adabiy til yaratish mumkin emasligini arabiy va forsiy, oddiy turkiy lug‘at ila hozirgi shevalarcha yoza bermoqdin boshqa iloj yo‘qtur”, - degan g‘oyani ilgari suradi<sup>1</sup>. Behbudiyning fikricha, “Turkistonda yagona ona tilini ta‘lim tizimiga joriy etishdan oldin okalarimizning o‘zlari bir necha avlod davomida me‘yorlashtirilgan adabiy tilda o‘qitilgan bo‘lmog‘i lozim” (Bu fikr shu kecha-kunduz uchun ham o‘ta dolzarbdur).

Jadidlarning fikricha, ta‘lim tili turkiy bo‘lmog‘i lozim, biroq turkiy tushunchasi, uning mohiyati aniq emas edi. Juda ko‘p hollarda “turkiy” deganda jadidlar Ismoil G‘aspirali tomonidan tashkil etilgan “Tarjumon” gazetasining qrim-tatar, turk-usmonlixa aralashmasidan iborat bo‘lgan “til”i tushunilar edi.

I. G‘aspiralining jadidlarga, xususan, Rossiyadagi turkiyzabon jadidlarga ta‘siri juda kuchli bo‘lganligini tarix sahifalaridan juda yaxshi bilamiz. Bu haqda Mahmudxo‘ja Behbudiy “Ismoilbek hazratlari” (vafotnomasi)da: “Shundayki, bu kunda Rusiya musulmonlari ichinda har bir muallim va har usuli savtiya maktablarning shogirdi va har bir jaridaxon va har bir jarida muharriri marhumning bilvosita shogirdonidandurlar. Ya‘ni ustoz muazzamning bu kun Rusiya musulmonlari arosinda milyo‘nlar ila ulamodan muharririn va muallimindan va o‘quvchilardan shogirdi bordur ham qanday shogird! Uttiz sanadan beri doimo onga dars o‘qiydurg‘on shogirdlardur”<sup>2</sup>, - deb I.G‘aspiralining jadid adiblari va ma‘rifatparvarlari asarlari tiliga kuchli ta‘sirini ko‘rsatganini e‘tirof etadi. Albatta, jadidlarning kattagina qismining Turkiyada ta‘lim olganligi ham bunga o‘z ta‘sirini ko‘rsatmay qolmagan. M.Behbudiy ham o‘z maqolalarida turkiy til deganda, asosan, o‘zbekcha-turkiy-usmonlixa aralashma tilini tushunadi:

“...turkiy bilinglar, - deb yozadi Behbudiy, - Firdavsiy, Bedil, Sa‘diy “Masnaviy”dan qanday lazzat olsa, turkiy bilganlar Fuzuliy, Navoiy, Boqiy, Somiy, Abdulhaq Homid, Akrambek, Sanoyi, Nobiy, Nojiylardan, yana Tolsto‘y, Jul Vern va ulamoyi zamona-viy asarining turkiy tarjimasidan lazzat shunday oladur”<sup>3</sup>.

Bu sirada sanalgan Fuzuliy, Navoiydan boshqa adiblarning barchalarining asarlari usmonli turk tilida yozilgan yoki usmonli turkchaga tarjima qilingan yozuvchilardir.

<sup>1</sup> Behbudiy M. Tanlangan asarlar (Nashrga tayerlovchi B.Qosimov). T.: Ma‘naviyat, 1997. B 167-170.

<sup>2</sup> Behbudiy M. Tanlangan asarlar T.: Ma‘naviyat, 1997. B.163-164.

<sup>3</sup> O‘sha asar. B.167.

Jadid ma'rifatparvar adiblarining, xususan, M. Behbudiy, A. Avloniy, Hamza, Munavvarqorining 1910-1917 yillarda yozilgan maktab ta'limiga mo'ljallangan darsliklarini til jihatidan tahlil etganimizda qiziq hodisaning guvohi bo'lamiz. Mazkur asarlarining muqaddimalari usmonlicha-o'zbekcha turkiy (aniqrog'i, "Tarjumon" gazetasining lisoniy me'yorlariga mos) bo'lsa, berilgan matnlar, ibratli hikoyalar, she'rlar va boshqa asosiy o'quv materiallarining tilidan eski o'zbek tili ta'siri sezilib turadi. A. Avloniyning "Birinchi muallim"idan olingan ikki parchani fikrimiz dalili sifatida solishtiramiz: "Muqaddima"da: "...millat bolalarina foydabaxsh o'lur umidinda bir necha muallimlarimizning iltijolari ila ko'b vaqt tajriba so'ngindan bu risolai ojizonamni "Birinchi muallim" ismi-la maydoni intishora qo'ydim. ...Inson nuqsondan xoli o'lmadig'i kabi qilg'on amali ham qusur va xatodan ori(y) o'lmas. Shul sababli muallimlarimiz har bir kusur va kamchiliklarimizdan tanbih va tanqid ila ogoh qilsalar edi".

"Asosiy matn"da: "Bir kishining Qosim ismli bir o'g'li bor edi. Ota va onasining so'ziga kirmasdan har xil yomon ishlarni qilur edi. Bolalar birla urushub, yaqolashub kiyimlarini yirtub kelur edi. Uyda onasi mehmon uchun asrab qo'ygan taomlarini yegon vaqtda, onasi: - "Qosim, o'g'lim! Taomni sen yedingmu?", - desa, - "Men yeganim yo'q, mushuk yegandur", - der edi".

Hech qanday tadqiqotsiz ham birinchi parchaning tili o'zbek uchun sun'iy, ikkinchi parcha esa uning ona tili me'yorlarini aks ettirayotganini sezish qiyin emas. Chunki birinchi parcha asarning "Muqaddima"sidan, ikkinchi parcha esa o'zbek bolalari o'qib-o'rganishi zarur bo'lgan asosiy matndan olingan. Shunga o'xshash hodisani barcha o'zbek jadid ma'rifatparvarlari darsliklarida ham ko'rish mumkin. Zero, jadidlar I.G'aspirali ilgari surgan, Turkiyada Anvar, Rif'at, Tal'at "uchligi" targ'ib etgan "umumturk adabiy tili" g'oyasi o'zbeklar uchun yot ekanligini tushunganlar. Shu bois maktab darsliklari "Muqaddima"larida, maqolalarida bu sun'iy tilga (davr siyosati bilan bog'liq ravishda) tayanishga harakat qilgan bo'lsalar-da, haqiqatda asosiy tadbil va bolalarga o'rganishga mo'ljallangan matnlarni o'zbek adiblarining an'analari hamda mahalliy shevalarga tayangan holda yozganlar. Yuqoridagi parchalar qiyosi buning yorqin misolidir.

Jadidlar ona tili ta'limi, ta'lim tilining nomlanishida ham yakdil bo'lishmagan. Bu tilni ular, asosan, "turkiy" deb ataydilar, lekin, aytib o'tganimizdek, bu so'zning ma'nosi o'ta noaniqdir. Bizning aniqlashimizcha, birinchilardan bo'lib 1913 yilda M. Behbudiy tomonidan til nomi sifatida "o'zbekiy" istilohi qo'llaniladi. Shunda ham "o'zbekiy" so'zini muallif turkiy so'zining ma'nodoshi sifatida keltiradi: "Turkiy, ya'ni o'zbekiyning sababi shulki, Turkiston xalqining aksari o'zbekiy so'ylashur"<sup>2</sup>.

Hamza ham o'zbek tili deganda hozirgi jonli so'zlashuv shevalariga yaqin bo'lgan tilni nazarda tutadi: "...haqiqatda qasddan o'zbek tilida ekan, biz o'zbek tiliga yaqinlashdurmoqqa kirishdik. Bu to'g'rilarda qusurlarimiz avlarim rijo va niyoz etarmiz"<sup>3</sup>. Haqiqatan ham, 1910-1920-yillarda hozirgi O'zbekiston mintaqasining rasmiy nomi ham (Turkiston, Turon, Movarounnahr), xalqning nomlanishi (sort, sart, o'zbek, turkistoniy, turkiy va b.) ham munozarali va rasmiylashmagan edi<sup>4</sup>. Jadid adiblarining ta'lim va uning tili masalasidagi qarashlariga oid fikrlarimizni yakunlab ayta olamizki, ular maktab ta'limining tili ona tili - "o'zbekiy" - turkiy til bo'lishi g'oyasini, uning

<sup>1</sup> Avloniy A. Tanlangan asarlar. 2 jildlik. 2-jild (Nashrga tayyorlovchi B.Qosimov ) T.: Ma'naviyat, 1998. B.6.

<sup>2</sup> Behbudiy M. Tanlangan asarlar (Nashrga tayerlovchi B.Qosimov). T.: Ma'naviyat, 1997. B.160.

<sup>3</sup> Hamza. To'la asarlar to'plami. 5 tomlik. T. 11. T.: Fan, 1988. B.68.

<sup>4</sup> Qarang Abdurahmonov G'. O'zbek xalki va tilining shakllanishi haqida,- T.: TDSH, 1999. B.89; Behbudiy M. Tanlangan asarlar. T.: Ma'naviyat, 1997. B.171-179; Popivanov Ye.D. Etnograficheskaya xarakteristika uzbekov. V'esh. 1. Proisxojenje i naimenovanie uzbekov. T.: Izv, Uzb. gos., 1926. B.31.

keng o'quvchilar ommasiga tushunarli bo'lishini targ'ib etganlar va o'z amaliyotlarida shunga tayanib ish ko'rganlar. Jadidlar nazariy jihatdan sun'iy umumturk tili ni targ'ib etganday bo'lsalar-da, amaliyotda undan o'z asarlarining muqaddimalari va jadidona kayfiyatdagi gazeta, jurnallardan tashqarida foydalanmaganlar. Jadidlarning sa'y-harakati bilan ma'rifiy-pedagogik adabiyotga "o'zbekiy", "o'zbekcha", "o'zbek tili" atamaları ham kirib kela boshladi.

XX asr boshlarida O'zbekiston mintaqasidagi maktablarda dunyoviy-ma'rifiy ta'limni ona tilida yo'lga qo'yishda, zamonaviy ta'lim usullarini ommalashtirishda, ona tilida imlo, talaffuz va qiroat qoidalarini yo'lga qo'yishda jadidchilik harakatining ijobiy ta'siri sezilarli bo'ldi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mirziyoyev. Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: O'zbekiston, 2016.
2. Mirziyoyev. Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: O'zbekiston, 2017
3. Mirziyoyev. Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. T.: O'zbekiston, 2017
4. Abdurashidxonov Munavvar qori. Tanlangan asarlar.-T: Ma'naviyat, 2003.
5. Abdurauf Fitrat- Tanlangan asarlar.B. Qosimov,-T., Ma'naviyat, 2003
6. A.Avloniy - Tanlangan asarlar. B.Qosimov, -T., Ma'naviyat, 2006. 1-Jild.
7. A.Avloniy - Tanlangan asarlar. B.Qosimov, -T., Ma'naviyat, 2006. 2-Jild.
8. M.Behbudiy - Tanlangan asarlar. B.Qosimov, -T., Ma'naviyat, 2006.
9. Is'hoqxonto'ra Ibrat. Tanlangan asarlar.B.Qosimov, -T., Ma'naviyat, 2005.
10. Qosimov Begali. Milliy uyg'onish .- T: Ma'naviyat. 2002.
11. Qurbonova M Abdurauf Fitrat va o'zbek tilshunosligi (metodik qo'llanma). T.: Universitet, 1997. B 48.
12. Saidov Yo. Fitrat badiiy asarlari leksikasi. Fil fanlari nom. diss. avtoref. T.: TAI, 2001. B 28.
13. Togaev T. Ashurali Zoxiriy va uning tilshunoslik merosi. Fil. fanlari nomzodi diss. avtoref. T.: TAI, 2005. B.28.
14. Bobomurodova Sh. O'zbek tilshunosligi rivojida Elbekning roli. Filol. fanlari nom. diss. avtoref. T.: 2001.- B.32.
15. Avloniy A. Tanlangan asarlar. 2 jildlik. 2-jild (Nashrga tayyorlovchi B.Qosimov ) T.: Ma'naviyat, 1998. B.6.
16. Abdurahmonov G'. O'zbek xalki va tilining shakllanishi haqida,- T.: TDSHI, 1999. B.89.
17. Popivanov Ye.D. Etnograficheskaya xarakteristika uzbekov. Vbsh. 1. Proisxozenie i naimenovanie uzbekov. T.: Izv, Uzb. gos., 1926. B.31.